

SITORA ASQAROVA

# SHIFOBAXSH GIYOHLAR HIMOYAGA MUHTOJ

Toshkent  
«Yangit asr avlodi»  
2012

**UDK: 65.89**

**BBK: 52.82**

**A-91**

**Asqarova S.** Shifobaxsh giyohlar himoyaga muhtoj. T.: «Yangi asr avlodi», 2012. – 32 b.

ISBN 978-9943-08-845-0

Bugungi kun yoshlari ancha izlanuvchan va tirishqoq. Qiziqqon mavzularida tadqiqot olib borish imkoniyati esa cheksiz. Shunday yoshlardan biri Sitora Asqarova. Tengdoshlaridan farqli o'laroq, tabiat va ekologiya tiyanroq nigoz tashlayotgan Sitora mazkur risolasi bilan o'simliklar dunyosini asrash va ulardan unumli foydalanishni tavsiya etadi.

Risola keng kitobxonlar onnasiga mo'ljallangan.

**UDK: 65.89**

**BBK: 52.82**

**Taqrizchi:**

**X.TURSUNOV,**

geografiya fanlari nomzodi, dotsent

ISBN 978-9943-08-845-0

© Sitora Asqarova, «Shifobaxsh giyohlar himoyaga muhtoj». «Yangi asr avlodi», 2012-yil.

## SO‘Z BOSHI O‘RNIDA

*Tabiat o‘simliklar bilan go‘zal,  
barhayot va abadiydir.*

O‘zbekiston – tabiiy va madaniy o‘simliklarga nihoyatda boy o‘lka. O‘lkamizdagi o‘simliklarni asrab-avaylash har birimizning burchimizdir. Negaki, o‘simliklar hayot manbayi. Tirik mavjudot hayotni o‘simliklarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Haqiqatan ham, Hadisda ta’kidlanganidek, o‘simliklar tufayli «dunyo yam-yashil va go‘zaldir». Odam va hayvonlar fotosintez jarayonida yashil o‘simliklarda hosil bo‘lgan organik moddalar bilan oziqlanadi. Yashil o‘simliklar bargi bilan turli changlarni tutib qoladi. Aniqlanishicha, 100 tup yosh terak bir yoz davomida 75 kg changni ushlab qolar ekan. Shuning uchun o‘simliklarni «Salomatlik posbonlari» deyishadi. Ekologiya masalasi muhim muammolardan biriga aylangan ayni vaqtda zavod, fabrikalardan va avtomashinalardan chiqayotgan turli gazlardan havoni musaffo qilishda «yashil do‘stlar» katta rol o‘ynaydi.

Shunday qilib ushbu risolada hayotimiz asosi hisoblangan o‘simliklarni ahamiyati, shifobaxshlik xususiyati, yo‘qolib ketish sabablari, nabotot olamining qanchalar xilma-xilligi haqida so‘z yuritimiz.

## **INSON VA JAMIYAT – TABIIY MUHITNI BUZUVCHI VA TIKLOVCHI ENG KATTA KUCH**

Hozirgi kunda inson atrof-muhitga katta kuch bilan uning holatiga misli ko‘rilmagan darajada salbiy ta’sir qilayotgan ekan, u tabiatdagi salbiy ta’sirlarning natijasini ko‘ra bilishi, ularning oldini olishi, ekologik holatni chora-tadbirlarini ko‘rib, muhitni qulaylashtirishi shart. Chunki shu muhitda insonning o‘zi yashaydi, hayot kechiradi. Bunda albatta inson tabiat qonunlarini e’tiborga olish va ularni o‘rganishi shart. Maqsad – jamiyat, inson va tabiat o‘rtasidagi hamjihatlikni hamda mutanosiblikni saqlashdir. Insonning tabiatga ta’siri salbiy va ijobiy ravishda amalga oshirilmoqda. Biz tabiatni bir bo‘lagimiz. Insonning ongli faoliyati o‘simlik, navlarini yaratish hayvon zotlarini yaxshilash, o‘rmon va daraxtlarni ko‘paytirish zarur. Inson o‘zining shaxsiy manfaatini hamma narsadan ustun qo‘yishi oqibatida tabiatga misli ko‘rilmagan ta’sir ko‘rsatishi natijasida daryolarning nisbiy sayozlashishi, o‘simlik va hayvonlar yo‘qolib ketishi havo, suv, tuproq ifloslanishi, foydali hasharot va qushlarning yo‘qolib ketishi kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan inson ekologiyasining vazifasi, ekotizm, antropogen ta’sirning oqibatlarini oldindan ko‘ra bilishi lozim.

Insoniyatning tabiatga ta’siri haqida gapirar ekanmiz, biz avvalo uning mehnat faoliyatini nazarda tutamiz. Insonlar tabiatga mehnat orqali ta’sir ko‘rsatadilar, mehnat bilan tabiatni o‘zgartiradilar.

Insonlar hayoti davomda tabiatni o‘zgartirib keladilar. To‘g‘ri, bu ta’sir tarixning turli bosqichlarida turlicha bo‘lgan, hamma narsa ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish vositalarining taraqqiyotiga bog‘liq bo‘lgan. Keyinchalik tabiiy muhitga insonlarning ta’siri tobora ortib bordi. Ma’lumki, uzoq vaqtlargacha tabiatni muhofaza qilish amaliy tadbirlar bilangina hal qilinishi mumkin bo‘lgan muammo deb kelingan. «Tabiatni muhofaza qilish» degan

jumlani birinchi marta 1913-yilda «Tabiatni muhofaza qilish»ga bag'ishlangan birinchi xalqaro anjumandan so'ng olimlar tomonidan ishlatila boshladi. Atrof-muhitning muhofazasi inson faoliyati uchun yaroqli tabiiy muhitni ta'minlash borasidagi davlat va jamiyat o'rtasidagi tadbirlardan iborat bo'lib, u inson sog'lig'ini saqlashda eng muhim masaladir. Tabiatni sog'lomlashtirish, go'zalligidan zavqlanish, marhamatlaridan to'g'ri yo'lda foydalanish ayni muddao. Atrof-muhit, to'g'rirog'i, tabiat – borliqning onasi. Tabiat bu ko'rkam, serhosiyat, nabotot olamidir, u dilga huzur bag'ishlaydi, tarovatli bog'u-rog'lari, ko'kni suyab turgandek azim tog'lari, bag'ri keng vodiylari, turfa rangli chamanlari bilan go'zaldir. Ammo bu go'zal tabiatga insonlarning rahna solishdan qaytarishlik, bu borada barkamolikka undamoq, kelajakka ochiq ko'z bilan qaramoq, shu kunning, XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Sababi, bugungi kunda insoniyatni turli-tuman tahdidlar ostida qoldirayotgan hodisalardan biri – bu ekologik vaziyat hisoblanadi. Hozirda shaharlarning kattalashishi, fan-texnika rivojlanishi oqibatida tabiatning, biosferaning, ya'ni jonivorlarning yashayotgan muhitini, havo, yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosini insonning salbiy ta'siri natijasida paydo bo'layotgan zararli, kimyoviy moddalar hamda fizik omillardan asrash vaqti allaqachon yetib keldi. Yer yuzasining turli mintaqalarida vujudga kelgan ekologik muammolar bevosita ekologik tanglik, hattoki ekologik halokat kabi tushunchalarni keltirib chiqarmoqda.

Olimlar o'z vaqtida «Tabiatni qo'riqlash – Vatanni qo'riqlash, demakdir» degan edilar. Darhaqiqat, hozir tabiatni muhofaza qilish dolzarb, kechiktirib bo'lmaydigan muammoga aylanib qoldi. Atrof-muhitni sog'lomlashtirish, uning musaffoligini asrash borasida so'z borar ekan, avvalo bizni o'rab turgan go'zal tabiatga hurmat bilan qarash lozim bo'ladi.

Lekin, afsuski tabiat boyliklaridan rejasiz, ko‘r-ko‘rona foydalanish, uning ehsonlarini suiiste‘mol qilish holatlari kuzatilmoqda. Ayniqsa, zo‘r va zabardast texnikaning turmushga kirib kelishi, yer qa‘riga, hattoki, insonning fazoga intilishi, shuningdek, kimyoviy moddalardan keng jabhalarda bearmon foydalanish o‘z navbatida atrof-muhitga ozor bermoqda. Bu esa mazkur joylarda yashovchi jonivorlarga, shu jumladan, inson salomatligiga ham bevosita salbiy ta‘sir ko‘rsatmay qolmaydi. Hozirgi tabiiy muhitga noxush ta‘sir, undagi muvozanatning buzilishi kichik bir mamlakat miqyosida emas, balki dunyo ko‘lamida sayyoramizning barcha qatlamlarida u yoki bu ko‘rinishida sodir bo‘lib turadi. Biosferani ifloslanishdan muhofaza qilish, ona tabiatni ko‘z qorachiqday asrash, unga nisbatan muhabbat uyg‘otish, yo‘qolib ketayotgan o‘simliklar va jonivorlarni iloji boricha saqlab qolish kabi g‘oyalarni targ‘ib qilish hamda amalga oshirish tashqi muhitni avaylashga, uni sog‘lomlashtirishga olib keladi.

Dunyoda hayotning barqaror bo‘lishini ta‘minlash uchun tabiiy muvozanatni, uning qonuniyatlarini buzmaslik, ularga rioya qilish yo‘li bilan tirik mavjudotlarni saqlab qolishga tashqi muhit omillarining uzluksiz barqarorligini ta‘minlashga erishish mumkin. Tabiat – bitmas-tuganmas xazina. Undagi jonli va jonsiz tabiatni, turli-tuman o‘simliklar dunyosini, hayvonot olamini, tabiatdagi xilma-xillik, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri tushunishda chuqur ekologik bilim va ta‘limning uzluksizligini ta‘minlash ayni muddaodir.

Biz yoshlarni tabiat va undagi ekologik muvozanat bilan tanishtirishdan maqsad – ona Vatanimizni sevish, uni o‘simliklarini, hayvonot olamini saqlash ko‘paytirish va bizlarga bo‘lgan munosabatlarni yaxshi tomonga o‘zgartirish ruhida tarbiyalash hamdir. Shu bilan birga hozirgi davrda tabiatda sodir etilayotgan ekologik fojialarning oldini olishdan iboratdir. Jamiyat doimo tabiat bilan aloqada

bo'lgan va bo'lib qoladi. Tabiat keng ma'noda butun moddiy-energetik va axborotlar dunyosi bo'lib, u insoniyat xo'jalik faoliyatining barcha turlari bilan chambarchas bog'langan. Bu bog'lanish tabiiy resurslar orqali vujudga keladi. Insoniyat bu resurslardan foydalanish uchun ishlab chiqarish korxonalarini quradi. Ishlab chiqarish jarayonida esa tabiiy muhitni, ya'ni o'zi yashab turgan tabiiy muhitni zararlovchi chiqindilar paydo bo'lmoqda, ular esa suvni, yerni, havoni ifloslantirmoqda.

Shuning uchun ham tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda tabiiy muhitni asrash muammolari paydo bo'ldi.

Demak, tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish bilan tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni qulaylashtirish, inson yashash muhitini asrash hamda eng asosiy muammo bo'lib qoladi. Buning zamirida esa barqaror rivojlanish yotadi. Shunday ekan, «Ona Tabiat» deb nomlanuvchi qalb qo'ri bilan e'zozlanuvchi atrof-muhitni musaffo saqlash uchun harakat qilishimiz zarur. Ekologik muammolarni fan-texnika yutuqlari asosida hal qilish jarayonida ekologiya fani, uning yo'nalishlari jamiyat va tabiat o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishdagi imkoniyatlarni muhim omil hisoblanadi. Ekologik tanglik va holatlarni oldini olishda jamiyat hamda tabiat o'rtasidagi ekologik ziddiyatlarni hal qilishda ekologiya fanining so'nggi yillarda erishgan yutuqlarini amaliyotda qo'llash katta ahamiyat kasb etadi.

## **BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI SAQLASH – HAYOTIMIZ MEZONI**

O'lkamizning o'simliklar dunyosi o'zining xilma-xilligi o'ziga xos xususiyatlari va shifobaxshligi bilan ajralib turadi. Ilmiy texnika taraqqiyoti, aholining tez suratlar bilan ko'payib borishi muhim darajada atrof-muhit (suv, suv



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi  
<https://kitobxon.com/uz/asar/2097> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси  
<https://kitobxon.com/uz/asar/2097> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию  
можно найти на сайте  
<https://kitobxon.com/ru/asar/2097>